DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIGA AJRATILADIGAN SUBSIDIYALAR HISOBI VA ULARNING MAQSADLI SARFLANISHI USTIDAN NAZORAT

Halilov Boburjon Sobirjon o'g'li
TDIU mustaqil tadqiqotchisi:

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirishning asosiy vositalaridan biri davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi bo'ldi. «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi Qonun bu munosabatlarning umumiy huquqiy asoslarini yaratgan bo'lsa, maktabgacha ta'lim sohasida u asosan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga (NoMTT) budjetdan subsidiya ajratish shaklida amalga oshirilmoqda. Davlat budjeti ijrosi ma'lumotlariga ko'ra, nodavlat MTTlarga subsidiyalar bo'yicha kassa xarajatlari 2023-yilda 2 744,8 mlrd so'mni, 2024-yilda 3 342,7 mlrd so'mni, 2025-yilda esa 3 950,2 mlrd so'mni tashkil etgan, ya'ni ikki yilda 43,9 foizga oshgan. Subsidiyalar maktabgacha ta'limga yo'naltirilgan jami budjet xarajatlarining qariyb to'rtdan bir qismini (2025-yilda 23,5 foiz) tashkil etadi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda budjetdan moliyalashtirilgan 37 905 ta MTTdan 30 929 tasi nodavlat tashkilotlar bo'lib, ularda 1 049 378 nafar bola tarbiyalangan.

Mablag'lar hajmi bunchalik katta bo'lgan sharoitda subsidiyalarni to'g'ri hisobga olish va ularning maqsadli sarflanishini nazorat qilish moliyaviy boshqaruvning eng muhim vazifalaridan biriga aylanadi. Bu masalaning murakkabligi shundaki, subsidiya bir vaqtning o'zida ikki turli hisob tizimida aks etadi: uni to'lovchi budjet tashkiloti budjet hisobi qoidalari bo'yicha xarajat sifatida, uni oluvchi xususiy subyekt esa moliyaviy hisobning milliy standartlari asosida daromad sifatida hisobga oladi. Ikki tizim o'rtasidagi ma'lumotlar muvofiqligi esa nazoratning asosiy shartidir.

Subsidiyalarni hisoblash va to'lash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 426-son qarori bilan tubdan o'zgartirildi. Qarorga muvofiq subsidiyalar har oyda Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruv axborot tizimida xodimlar va tarbiyalanuvchilarning biometrik identifikatsiya orqali qayd etilgan davomati asosida avtomatik hisoblanadi. Bir bolaga to'g'ri keladigan kunlik subsidiya davlat MTTlarini saqlash xarajatlaridan kelib chiqib, hududiy foiz stavkalari (qarorning dastlabki tahririda hududlar toifasiga qarab 30, 40, 50 va 75 foiz) qo'llangan holda aniqlanadi, oylik summa esa bolaning amalda qatnagan kunlari soniga ko'paytiriladi. Tarbiyalanuvchilarning oylik o'rtacha davomati ro'yxatdagi bolalar sonining 40 foizidan kam bo'lsa, ushbu oy uchun xodimlar ish haqi budjetdan to'lanmaydi. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalariga davlat mablag'larining maqsadli ishlatilishini monitoring qilish vazifasi yuklatilgan.

2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son Farmon bu mexanizmni yanada rivojlantirdi. Qamrov darajasi 80 foizdan past bo'lgan tumanlarda 2026-yil 1-apreldan boshlab

DXSh asosidagi nodavlat MTTlarga subsidiya to‘qqiz soatlik davlat MTTda bir bolani saqlash xarajatining 50 foizi miqdorida, elektron davomat asosida to‘lanadi. Shuningdek, subsidiyalar samaradorligini har yili 1-dekabrgacha tahlil qilib borish vazifasi belgilandi. Shunday qilib, subsidiya miqdori to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat MTTlaridagi xarajatlar ma’lumotlariga bog‘landi va bu ma’lumotlarning ishonchliligi subsidiyalar to‘g‘ri hisoblanishining zaruriy shartiga aylandi.

Farmonda nodavlat sektorni qo‘llab-quvvatlashning subsidiyadan tashqari shakllari ham nazarda tutilgan. Jumladan, kamida 150 o‘rinli bino quruvchi tadbirkorlarga Markaziy bank asosiy stavkasiga 4 foiz punkt qo‘shilgan stavkada 5 mlrd so‘mgacha kredit ajratilishi, faoliyat boshlangandan keyingi uch yil davomida esa pedagoglar ish haqi davlat MTTlaridagi stavkalar bo‘yicha, elektron davomat asosida va har 30 nafar bolaga bir pedagog hisobida davlat budjetidan qoplanishi belgilangan. Hisob nuqtai nazaridan bu shuni anglatadiki, bir nodavlat MTT bir vaqtning o‘zida bir necha turdagi davlat yordamini olishi mumkin: bolalar ta’minoti uchun subsidiya, pedagoglar ish haqini qoplash va imtiyozli kredit. Har bir yordam turi o‘z shartlari, hisoblash bazasi va nazorat mezonlariga ega. Agar ular to‘lovchi tashkilot hisobida alohida aks ettirilmasa, bir xil bolalar kontingenti uchun ikki marta to‘lov qilinishi yoki bir yordam turi hisobidan boshqa yordam turiga mo‘ljallangan xarajatlar qoplanishi xavfi yuzaga keladi. Shu sababli subsidiyalar hisobi «bir oluvchi – bir nechta yordam turi» tamoyili asosida, oluvchi va yordam turi kesimida yuritilishi lozim.

Mavjud ma’lumotlar asosida o‘tkazilgan hisob-kitoblar bu bog‘liqlikning amaldagi holatini ko‘rsatadi. 2025-yilda davlat MTTlarida bir tarbiyalanuvchiga o‘rtacha 8,39 mln so‘m saqlash xarajati to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, nodavlat MTTlarda bir tarbiyalanuvchiga 3,77 mln so‘m subsidiya to‘g‘ri kelgan, ya’ni davlat MTTdagi xarajatning taxminan 45 foizi. Hududlar kesimida bir nodavlat MTT tarbiyalanuvchisiga subsidiya Surxondaryo viloyatida 3,55 mln so‘mdan Navoiy viloyatida 4,98 mln so‘mgacha o‘zgaradi, Toshkent shahrida esa nodavlat sektorda subsidiyalanadigan tashkilotlar kam bo‘lgani sababli bu ko‘rsatkich 0,10 mln so‘mni tashkil etadi. Bunday tafovutlar hududiy koeffitsiyentlar, davomat darajasi va guruhlar ish rejimidagi farqlar bilan izohlanishi mumkin, biroq ularning har biri hisob ma’lumotlari bilan tasdiqlanishi lozim.

To‘lovchi tashkilot – tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi darajasida subsidiyalar hisobi bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, subsidiyalar budjetning iqtisodiy tasnifida «Nomoliyaviy xususiy tashkilotlarga subsidiyalar» moddasi bo‘yicha yagona summa sifatida aks ettiriladi. Ularni oluvchi tashkilotlar, DXSh shartnomalari, hisob-kitob davrlari va subsidiya turlari (bolalar ta’minoti uchun subsidiya, xodimlar ish haqini qoplash, kompensatsiya) kesimida ajratib ko‘rsatish tahliliy hisob darajasida yetarlicha tizimlashtirilmagan. Ikkinchidan, axborot tizimida hisoblangan subsidiya summasi bilan buxgalteriya hisobida tan olingan xarajat va g‘aznachilik orqali to‘langan summa o‘rtasida vaqt farqlari yuzaga keladi: oy yakunida hisoblangan subsidiya keyingi oyda to‘lanadi, davomat ma’lumotlari esa ba’zan keyinroq tuzatiladi. Bu farqlar muntazam solishtirilmasa, yil yakunida izohlanmagan qoldiqlar paydo bo‘ladi. Uchinchidan, budjet tasnifida 2024-yildan boshlab tovar va xizmatlar xarajatlari tarkibida «Davlat-xususiy sheriklik

asosidagi xarajatlar» kichik moddasi ham ajratilgan bo‘lib, unga 2024-yilda 139,3 mlrd so‘m, 2025-yilda 134,7 mlrd so‘m to‘langan. DXSh shartnomalari bo‘yicha xizmatlar uchun to‘lovlar va subsidiyalarning chegarasi aniq belgilanmasa, bir xil munosabat ikki xil moddada aks etishi xavfi tug‘iladi.

Oluvchi tashkilot darajasida esa subsidiyani tan olish tartibi muhim ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda davlat grantlari va subsidiyalari ular bilan bog‘liq shartlar bajarilganiga yetarli ishonch hosil bo‘lganda va ular qoplashga mo‘ljallangan xarajatlar bilan muvofiq davrlarda daromad sifatida tan olinadi. Nodavlat MTTlarda bu tamoyil subsidiya bolalar davomati asosida hisoblanishi bilan uyg‘un: subsidiya xizmat ko‘rsatilgan davrda daromad sifatida, uning hisobidan qilingan ovqatlanish, ish haqi va boshqa xarajatlar esa xuddi shu davrda xarajat sifatida aks ettirilishi lozim. Amaliyotda esa subsidiyani pul kelib tushgan paytda daromadga olish, subsidiya hisobidan qilingan xarajatlarni ota-onalar to‘lovlari va boshqa tushumlar hisobidan qilingan xarajatlardan ajratmaslik holatlari uchrashi mumkin. Bunday hollarda subsidiyaning maqsadli sarflanganini hujjatlar asosida tasdiqlash qiyinlashadi.

Subsidiyalarning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni, bizningcha, uch darajali tizim sifatida qurish maqsadga muvofiq. Birinchi daraja – axborot tizimidagi avtomatik nazorat: davomat ma’lumotlarining mantiqiy tekshiruvi (bir bolaning bir kunda ikki tashkilotda qayd etilishi, guruh sig‘imidan oshiq davomat, dam olish kunlaridagi davomat), subsidiya summasining me’yoriy formula bilan mosligi, xodimlar ish haqini qoplash bo‘yicha 40 foizlik davomat chegarasining kuzatilishi. Ikkinchi daraja – masofaviy tahliliy nazorat: tuman bo‘limi va hududiy boshqarma darajasida har oyda subsidiya oluvchilar bo‘yicha bir bolaga to‘g‘ri keladigan subsidiya, davomat dinamikasi, ro‘yxatdagi bolalar sonining keskin o‘zgarishi kabi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va chetlanishlarni aniqlash. Ayniqsa, davomati doimiy ravishda 40 foizlik chegara atrofida bo‘lgan yoki ro‘yxatdagi bolalar soni qisqa vaqtda keskin oshgan tashkilotlar yuqori risk guruhiga kiritilishi lozim. Uchinchi daraja – risk asosida tanlangan tashkilotlarda joyiga chiqib nazorat qilish: bolalarning haqiqiy mavjudligi, ovqatlanish me’yorlarining bajarilishi, subsidiya hisobidan qilingan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar va moliyaviy hisobotning ishonchliligini tekshirish.

Uch darajali nazorat tizimi samarali ishlashi uchun to‘lovchi va oluvchi o‘rtasidagi hisob-kitoblarni davriy solishtirish tartibi ham aniq belgilanishi kerak. Bizningcha, har chorak yakunida tuman bo‘limi va har bir nodavlat MTT o‘rtasida hisoblangan, to‘langan va qayta hisob-kitob qilingan subsidiya summalari bo‘yicha solishtirish dalolatnomasi tuzilishi, yil yakunida esa ushbu dalolatnomalar asosida subsidiyalar bo‘yicha qoldiqlar (ortiqcha yoki kam to‘langan summalar) aniqlanishi lozim. Bu tartib davomat ma’lumotlariga keyinchalik kiritilgan tuzatishlar natijasida yuzaga keladigan farqlarni o‘z vaqtida bartaraf etish va ortiqcha to‘langan summalarni budjetga qaytarish imkonini beradi.

Solishtirish natijalari yillik budjet hisobotida ham to‘g‘ri aks ettirilishi zarur. To‘lovchi tashkilotda ortiqcha to‘langan va qaytarilishi lozim bo‘lgan subsidiya summalari debitor qarz sifatida, hisoblangan, ammo hisobot sanasiga qadar to‘lanmagan summalar esa kreditor qarz sifatida tan olinishi lozim. Shundagina subsidiyalar bo‘yicha xarajatlar hisoblash metodi talablariga muvofiq tegishli davrda

aks etadi va debitor-kreditor qarzlar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma subsidiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarning haqiqiy holatini ko‘rsatadi. Amaliyotda esa subsidiyalar ko‘pincha kassa asosida, ya’ni to‘lov amalga oshirilgan oyda xarajat sifatida hisobga olinadi va bu yil yakunidagi hisobot ko‘rsatkichlarini buzadi.

Nazoratning yana bir muhim, ammo kam e’tibor qaratilayotgan shakli – jamoatchilik nazorati. Ota-onalar subsidiya oluvchi MTTning bevosita iste’molchisi bo‘lib, xizmat sifati, ovqatlanish va guruhlardagi bolalar soni haqida eng ishonchli axborotga ega. Har bir nodavlat MTTga oylik ajratilgan subsidiya summasi, hisob-kitobga asos bo‘lgan davomat va undan foydalanish yo‘nalishlari to‘g‘risidagi umumlashtirilgan ma’lumotlarni ota-onalar uchun ochiq e’lon qilish, shuningdek, ota-onalarning murojaatlarini nazorat obyektlarini tanlashda risk omili sifatida hisobga olish subsidiyalarning maqsadli sarflanishini ta’minlashda qo‘shimcha kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba ham shunday yondashuvning maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Jahon banki mutaxassislarining ta’limdagi DXSh bo‘yicha tadqiqotlarida xususiy provayderlarni budjetdan moliyalashtirish qamrovni kengaytirish va tanlovni oshirish imkonini berishi, biroq natijalar aniq hisobdorlik mexanizmlari va shartnoma shartlarining samarali monitoringiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Asosiy ta’limdagi DXSh shakllari bo‘yicha xalqaro sharhlarda ham davlat va xususiy provayder o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarda aniq natija ko‘rsatkichlari va ularni tekshirish tartibini belgilash muhimligi ta’kidlanadi. Mahalliy tadqiqotlarda nodavlat MTTlarda moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv axborot tizimlari orqali tashkil etish va DXSh asosida moliyalashtirishda xorij tajribasidan foydalanish masalalari ko‘tarilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, tuman bo‘limlarida subsidiyalar bo‘yicha xarajatlarning tahliliy hisobini oluvchining soliq to‘lovchi identifikatsiya raqami, DXSh shartnomasi raqami, hisob-kitob oyi va subsidiya turi kesimida yuritish, axborot tizimida hisoblangan summalar bilan buxgalteriya ma’lumotlarini har oyda solishtirish dalolatnomasi orqali tasdiqlash. Ikkinchidan, nodavlat MTTlar uchun subsidiyani daromad sifatida tan olish va undan qilingan xarajatlarni alohida aks ettirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish hamda subsidiyadan foydalanish to‘g‘risidagi yillik hisobot shaklini joriy etish. Uchinchidan, «subsidiya» va «DXSh asosidagi xizmatlar uchun to‘lov» tushunchalari chegarasini uslubiy jihatdan aniq belgilash. To‘rtinchidan, PF-19-son Farmonda nazarda tutilgan subsidiyalar samaradorligini yillik tahlil qilishda davomat, bir bolaga subsidiya, ovqatlanish me’yorlari bajarilishi va nazorat natijalarini birlashtiruvchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, DXSh asosidagi nodavlat MTTlarga ajratilayotgan subsidiyalar maktabgacha ta’lim qamrovini oshirishning samarali vositasi bo‘lib, ularning hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishini ta’minlash uchun to‘lovchi va oluvchi tashkilotlar hisobidagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lash, axborot tizimi imkoniyatlaridan nazorat vositasi sifatida to‘liq foydalanish va risk asosida tanlangan obyektlarda chuqur tekshiruvlar o‘tkazish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-537-son «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 426-son «Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son «Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni // lex.uz.

4. IFRS Foundation. IAS 20 Accounting for Government Grants and Disclosure of Government Assistance. – London: IFRS Foundation (amaldagi tahriri).

5. Patrinos H.A., Barrera-Osorio F., Guáqueta J. The Role and Impact of Public-Private Partnerships in Education. – Washington, DC: World Bank, 2009.

6. LaRocque N. Public-Private Partnerships in Basic Education: An International Review. – Reading: CfBT Education Trust, 2008.

7. Muslitdinov N. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida moliyaviy jarayonlarini axborot tizimlari orqali tashkil etishning amaliy jihatlari // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2024. – № 2(3). – B. 5–11. – DOI: 10.5281/zenodo.14493529.

8. Xalilova Sh.G‘. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishni takomillashtirishda xorij tajribasi // Ta’lim fidoyilari. – 2024. – Aprel. – DOI: 10.5281/zenodo.10959919.